

O‘ZBEKISTONNING TURIZM SALOHİYATINI OSHIRISH VA XALQARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MICE TURIZMIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI

Radjabov Odil Olimovich

*BuxDU Iqtisodiyot va turizm fakulteti, turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası
katta o‘qituvchisi*

Sobirov Jamshidbek

3-1-MARKT-21 guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada MICE (Meetings, Incentives, Conferences, Exhibitions) turizmining O‘zbekiston turizm salohiyatini oshirishdagi va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Mamlakatdagi mavjud infratuzilma, geografik afzalliklar va davlat siyosatining MICE turizmini qo‘llab-quvvatlashdagi roli ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, MICE tadbirlarini samarali tashkil qilish mexanizmlari, xorijiy tajribalar asosida takliflar va ularni O‘zbekistonga moslashtirish yo‘llari yoritilgan. Maqolada sohaning muammolari va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ham bayon etilgan. Natijada, MICE turizmini strategik rivojlantirish orqali O‘zbekistonning xalqaro turizm bozoridagi mavqei mustahkamlanishi mumkinligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: MICE turizmi, xalqaro hamkorlik, turizm salohiyati, konferensiya, investitsiya, O‘zbekiston, infratuzilma, strategik rivojlanish.

МЕХАНИЗМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ MICE-ТУРИЗМА ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА УЗБЕКИСТАНА И РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА

Раджабов Одил Олимович

*Факультет экономики и туризма Бухарского государственного университета,
кафедра туризма и гостиничного хозяйства, старший преподаватель*

Собиров Джамшидбек

Студент группы 3-1-MARKT-21

Аннотация: В данной статье анализируется роль туризма MICE (встречи, поощрительные поездки, конференции, выставки) в повышении туристического потенциала Узбекистана и развитии международного сотрудничества.

Рассматриваются существующая инфраструктура страны, географические преимущества и роль государственной политики в поддержке туризма MICE. Также освещаются механизмы эффективной организации MICE-мероприятий, предложения на основе зарубежного опыта и пути их адаптации к условиям Узбекистана. В статье изложены проблемы в данной сфере и даны рекомендации по их устранению. В результате подчёркивается, что стратегическое развитие туризма MICE может укрепить позиции Узбекистана на международном туристическом рынке.

Ключевые слова: *туризм MICE, международное сотрудничество, туристический потенциал, конференция, инвестиции, Узбекистан, инфраструктура, стратегическое развитие.*

MECHANISMS FOR UTILIZING MICE TOURISM TO ENHANCE UZBEKISTAN'S TOURISM POTENTIAL AND DEVELOP INTERNATIONAL COOPERATION

Radjabov Odil Olimovich

*Faculty of Economics and Tourism, Bukhara State University, Department of
Tourism and Hospitality, Senior Lecturer*

Sobirov Jamshidbek

Student of Group 3-1-MARKT-21

Abstract: This article analyzes the role of MICE tourism (Meetings, Incentives, Conferences, Exhibitions) in enhancing Uzbekistan's tourism potential and promoting international cooperation. The study examines the country's existing infrastructure, geographical advantages, and the role of government policy in supporting MICE tourism. It also highlights effective mechanisms for organizing MICE events, offers based on international experience, and ways to adapt them to Uzbekistan's conditions. The article outlines current challenges in the sector and provides recommendations for their resolution. As a result, it is emphasized that the strategic development of MICE tourism can strengthen Uzbekistan's position in the international tourism market.

Keywords: *MICE tourism, international cooperation, tourism potential, conference, investment, Uzbekistan, infrastructure, strategic development.*

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida turizm sohasi mamlakatlar iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rin tutmoqda. An'anaviy dam olish turizmiga qo'shimcha ravishda, so'nggi yillarda dunyoda ishbilarmonlik va korporativ tadbirlarga asoslangan

yangi yo‘nalish – MICE (Meetings, Incentives, Conferences, Exhibitions) turizmi jadal rivojlanmoqda. Ushbu turizm turi nafaqat sayyohlik oqimini ko‘paytirish, balki xalqaro biznes aloqalarni mustahkamlash, sarmoyalarni jalb etish va mamlakatning ijobiy imijini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. O‘zbekiston ham MICE turizmi imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali o‘zining turizm salohiyatini oshirish va xalqaro maydonda raqobatbardosh turizm markaziga aylanish yo‘lida jadal harakat qilmoqda. So‘nggi yillarda respublika miqyosida qabul qilinayotgan strategik hujjatlar, infratuzilma rivoji, xalqaro konferensiyalar va ko‘rgazmalarning o‘tkazilishi – bularning barchasi MICE turizmining istiqbolli yo‘nalish sifatida shakllanayotganidan dalolat beradi. Mazkur mavzuda O‘zbekiston sharoitida MICE turizmining rivojlanish mexanizmlarini tahlil qilish, mavjud imkoniyatlar va muammolarni aniqlash, hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiluvchi takliflar ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi [1].

Bugungi kunda turizm sohasi nafaqat dam olish vositasi, balki iqtisodiy o‘rish va xalqaro aloqalarni kengaytirishning muhim omili sifatida qaralmoqda. Xususan, MICE turizmi – ya’ni uchrashuvlar, rag‘batlantiruvchi sayohatlar, konferensiyalar va ko‘rgazmalarni o‘z ichiga olgan ishbilarmonlik turizmi turi – global miqyosda jadal rivojlanmoqda. Ushbu maqolada O‘zbekistonda MICE turizmi imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali turizm salohiyatini oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish mexanizmlari yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Turizm sanoatining yangi yo‘nalishlaridan biri hisoblangan MICE turizmi (uchrashuvlar, rag‘batlantiruvchi sayohatlar, konferensiyalar va ko‘rgazmalar) global iqtisodiy o‘rish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishda muhim o‘rin tutmoqda. Ushbu sohaga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari MICE turizmining nazariy asoslari, iqtisodiy samaradorligi va rivojlanish omillarini chuqur tahlil etadi. MICE turizmi tushunchasini birinchi bo‘lib chuqur o‘rgangan tadqiqotchilardan biri — Donald Getz bo‘lib, uning “Event Tourism” (2008) asarida MICE tadbirlarining mahalliy iqtisodiyotga ta’siri, rejalashtirish strategiyalari va infratuzilma ehtiyojlari keng tahlil qilingan. Getz MICE tadbirlarini “turistik tadbirlar orqali strategik raqobat ustunligini shakllantirish vositasi” sifatida baholaydi [2].

C. Weber va K.S. Chon (2002) tomonidan yozilgan “Convention Tourism” kitobda konvensiya va konferensiyalarni tashkil etish, mezbon shaharlar tanlovi va logistika menejmentiga oid muhim jihatlar yoritilgan. Ular MICE turizmini yuqori darajadagi tashkilotchilik va xalqaro aloqalarni talab qiluvchi ixtisoslashgan soha deb baholaydi. UNWTO (World Tourism Organization) va ICCA (International Congress and Convention Association) tomonidan har yili taqdim etiladigan hisobotlar esa dunyo miqyosidagi MICE tendensiyalar, statistik tahlillar va eng muvaffaqiyatli

mezbon davlatlar tajribasini o'z ichiga oladi. Jumladan, Singapur, Dubay, Istanbul va Barselona MICE turizmining ilg'or markazlari sifatida ko'riladi [3].

O'zbekistonlik olimlar ham ushbu mavzuga oid qator ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Jumladan, Mahmudov Sh. va Usmonova N. (2022) tomonidan yozilgan "O'zbekiston turizm salohiyati va istiqbollari" monografiyasida O'zbekiston sharoitida turizmning tarmoqlari, jumladan MICE yo'nalishi imkoniyatlari o'rganilgan. Mualliflar respublikada mavjud zamonaviy kongress-markazlar, mehmonxona bazasi va servis xizmatlarining bu yo'nalishdagi salohiyatni rivojlantirishdagi o'rni haqida batafsil to'xtalgan. To'xtasinov I. va Yuldashev S. (2021) O'zbekiston turizm infratuzilmasining MICE turizmi talablariga moslashuv darajasini baholab, Samarqand va Toshkent shaharlarini mintaqaviy MICE markazlariga aylantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishgan. Shuningdek, Davlat turizm qo'mitasi va Toshkent iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy markazlar tomonidan nashr etilgan ilmiy maqolalarda MICE turizmining marketing strategiyalari, investitsion jozibadorligi va xalqaro brendingdagi roli yoritilgan. Mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, MICE turizmi O'zbekiston uchun yuqori iqtisodiy foyda va xalqaro e'tiborni jalb etish imkoniyatiga ega strategik sohadir. Ilmiy izlanishlar ushbu yo'nalishda tizimli yondashuv, kadrlar tayyorlash va infratuzilmani modernizatsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi. Bu esa MICE turizmidan samarali foydalanish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi [4].

METODOLOGIYA

Mazkur ilmiy tadqiqotda O'zbekiston sharoitida MICE turizmidan foydalanish orqali turizm salohiyatini oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash, mavjud muammolarni tahlil qilish hamda samarali mexanizmlarni ishlab chiqish asosiy maqsad qilib olingan. Tadqiqotda ilmiy-nazariy tahlil, statistik tahlil usuli, taqqoslash metodi, SWOT-tahlil, ekspert baholash usuli va tizimli yondashuv kabi metodlardan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

MICE atamasi ilk bor 1990-yillarda turizm industriyasining segmentatsiyasi jarayonida joriy etilgan. Donald Getz (2008) o'zining "Event Tourism" asarida MICE turizmini strategik rejalashtirish, marketing va iqtisodiy ta'sir nuqtayi nazaridan chuqur o'rganadi. C. Weber va K.S. Chon (2002) esa "Convention Tourism" ishida bu sohaga oid infratuzilmaviy va menejment masalalarini atroflicha yoritadi. BMTning Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, MICE tadbirlari mezbon davlat uchun yirik sarmoyalarni jalb qilish, mahalliy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish va xalqaro maydondagi imijni oshirishda muhim vosita hisoblanadi [5].

1-jadval

O‘zbekistonning MICE turizmi sohasidagi muammolari va ularning yechimlari¹

Muammo	Yechim
MICE infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi	Kongress va ko‘rgazma markazlari qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish
Malakali kadrlar tanqisligi	Maxsus o‘quv kurslari, malaka oshirish dasturlarini tashkil etish
Marketing va targ‘ibot ishlarining sustligi	Raqamli marketing, xalqaro ko‘rgazmalarda qatnashish
Transport-logistika tizimidagi muammolar	Aeroport, temiryo‘l va ichki transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish
Xalqaro standartlarga javob beruvchi mehmonxonalar yetishmasligi	Xususiy investitsiyalarni jalb qilish, xalqaro mehmonxona brendlari kiritish
Qonunchilikdagi byurokratik to‘siqlar	Vizani soddalashtirish, “bir darcha” tamoyili asosida hujjatlashtirish tizimi

O‘zbekistonning MICE turizmi sohasida rivojlanish salohiyati yuqori bo‘lsa-da, mavjud tizimda qator muammolar mavjudligi aniqlanmoqda. Jumladan, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, malakali kadrlar yetishmovchiligi, marketing va targ‘ibot ishlarining sustligi, transport-logistika tizimidagi kamchiliklar, xalqaro standartlarga javob beruvchi mehmonxona xizmatlari yetishmasligi, hamda byurokratik to‘siqlar MICE turizmining to‘laqonli ishlashiga to‘sqinlik qilmoqda. Biroq, mavjud muammolar yechimi bor: zamonaviy kongress markazlari barpo etish, sohaga xos kadrlarni tayyorlash, xalqaro darajadagi targ‘ibot ishlarini kuchaytirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, xalqaro mehmonxona brendlari jalb etish va soddalashtirilgan hujjatlashtirish tizimini joriy etish orqali bu sohani samarali rivojlantirish mumkin. Shu sababli, MICE turizmini rivojlantirishda tizimli, bosqichma-bosqich yondashuv, davlat va xususiy sektor hamkorligi hamda xalqaro tajriba asosida amaliy choralar ko‘rilishi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi turistik nufuzini oshiradi, iqtisodiy rivojlanish va xalqaro hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratadi [6].

O‘zbekiston MICE turizmi uchun muhim strategik geografik joylashuvga ega. So‘nggi yillarda Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi shaharlarda zamonaviy kongress va ko‘rgazma markazlari barpo etilmoqda. "Silk Road Samarkand", "Tashkent City Congress Hall", "International Congress Center" kabi loyihalar bu yo‘nalishdagi salohiyatni ko‘rsatadi.

¹ Muallif ishlanmasi

Mahalliy tadqiqotchi Mahmudov Sh. va Usmonova N. (2022) fikricha, MICE turizmi orqali O'zbekistonga xorijiy sarmoyadorlar va investorlarni jalb etish imkoniyati mavjud.

Shu bilan birga, To'xtasinov I. va Yuldashev S. (2021) O'zbekistonda MICE infratuzilmasining raqobatbardoshligini oshirish uchun mehmonxona xizmatlari, logistika tizimi va raqamli texnologiyalarni modernizatsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi [7, 11].

2-jadval

Xorijiy davlatlar tajribasi: MICE turizmidan foydalanish mexanizmlari²

<i>Davlat</i>	<i>Mexanizmlar</i>
Singapur	MICE Industry Development Strategy, davlat va xususiy sektor hamkorligi, grant va subsidiyalar
Birlashgan Arab Amirliklari	Dubay Turizm Departamenti orqali MICE tadbirlarini rejalashtirish, bepul xizmatlar va marketing yordami
Germaniya	Messe Frankfurt, Koelnmesse kabi yirik ko'rgazma markazlari, sanoat bilan integratsiyalashgan tizim
Turkiya	Istanbul Congress Valley loyihasi, mehmonxonalar va konferensiya zallari ko'pligi, regional marketing
Janubiy Koreya	Korea MICE Bureau orqali texnik qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari, smart texnologiyalar integratsiyasi
Qozog'iston	Nur-Sulton va Olmaotada kongress-markazlar qurilishi, EXPO merosidan foydalanish strategiyasi

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, MICE turizmini samarali rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarur. Yetakchi davlatlar, jumladan Singapur, BAA, Germaniya, Turkiya, Janubiy Koreya va Qozog'iston o'zlarining iqtisodiy, siyosiy va texnologik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, MICE turizmini rivojlantirishda bir nechta asosiy mexanizmlarga tayanmoqda.

Bu mexanizmlar orasida quyidagilar ajralib turadi:

- davlat va xususiy sektor o'rtasidagi strategik hamkorlik;
- texnik va moliyaviy qo'llab-quvvatlash (grant, subsidiyalar, soliq imtiyozlari);
- zamonaviy kongress-markazlar va infratuzilmalar barpo etish;
- marketing va brending strategiyalarini kuchaytirish;
- sanoat, mehmonxona va transport tizimlari bilan integratsiyalashgan yondashuv;
- ilg'or texnologiyalar, "smart" yechimlar va EXPO merosidan foydalanish.

Ushbu tajribalar O'zbekiston uchun ham muhim yo'nalishlar sifatida xizmat qilishi mumkin. Mamlakatda mavjud salohiyatni xorijiy tajribalar bilan

² Muallif ishlanmasi

uyg'unlashtirgan holda MICE turizmini rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sish, xalqaro aloqalar va turistik brend imijini mustahkamlashga erishish mumkin [8, 10].

3-jadval

MICE turizmining xalqaro hamkorlikdagi o'rni³

<i>Yo'nalish</i>	<i>MICE Turizmi orqali qo'lga kiritiladigan imkoniyatlar</i>
Diplomatik aloqalarni mustahkamlash	Xalqaro forumlar, sammitlar orqali davlatlar o'rtasidagi siyosiy muloqotni kuchaytirish
Iqtisodiy hamkorlik	Investitsion forumlar, biznes uchrashuvlar orqali savdo, sarmoya va loyihalarni rivojlantirish
Ilmiy-ta'limiy hamkorlik	Xalqaro konferensiyalar, seminarlar orqali universitetlar va ilmiy markazlar o'rtasidagi almashinuv
Madaniy aloqalarni kengaytirish	Ko'rgazmalar va festivallar orqali boshqa xalqlar bilan madaniy aloqalarni rivojlantirish
Turizmni eksport qilish	Mamlakat brendini targ'ib qilish, yangi turistlar oqimini jalb qilish
Xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar	BMT, UNWTO, ICCA kabi tashkilotlar tadbirlarini qabul qilish orqali nufuzni oshirish

MICE turizmi xalqaro aloqalarni mustahkamlovchi muhim vosita hisoblanadi. Xalqaro konferensiyalar va ko'rgazmalar orqali O'zbekiston xorijiy davlatlar bilan madaniy, ilmiy va iqtisodiy sohalarda hamkorlikni kengaytirishi mumkin. ICCA (International Congress and Convention Association) tomonidan berilgan reytinglarda ishtirok etish orqali O'zbekiston o'zining xalqaro maydondagi mavqeini oshirishi mumkin.

XULOSA

Tahlillardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, MICE turizmi O'zbekiston uchun nafaqat iqtisodiy foyda manbai, balki xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirishning kuchli vositasidir. Mamlakatda mavjud infratuzilmaviy resurslar, geosiyosiy joylashuv, tarixiy-madaniy meros bu yo'nalishni rivojlantirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Davlat siyosatida MICE turizmini alohida yo'nalish sifatida rivojlantirish, xususiyl sektorini jalb qilish va kadrlar salohiyatini oshirish muhim strategik yo'nalishlardan biri bo'lishi lozim. MICE (Meetings, Incentives, Conferences, Exhibitions) turizmi zamonaviy turizmning eng jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri bo'lib, u nafaqat mamlakat iqtisodiyotiga salmoqli daromad keltiradi, balki xalqaro hamkorlikni kengaytirish, investitsiyalar oqimini kuchaytirish va O'zbekistonning ijobiy imijini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Mazkur maqolada O'zbekiston hududida MICE turizmini rivojlantirish imkoniyatlari, mavjud resurslar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilindi.

³ Muallif ishlamasi

O‘zbekistonning boy madaniy merosi, zamonaviy infratuzilmasi, geografik joylashuvi va davlat tomonidan berilayotgan e’tibor MICE turizmini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, ushbu sohani tizimli ravishda rivojlantirish uchun hukumat, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar o‘rtasida uzviy hamkorlikni kuchaytirish, malakali kadrlar tayyorlash, marketing strategiyalarini takomillashtirish va yirik xalqaro tadbirlarni jalb etish muhim vazifalardan hisoblanadi. Shunday qilib, MICE turizmini strategik yo‘nalish sifatida rivojlantirish O‘zbekistonning turizm salohiyatini yangi bosqichga olib chiqib, xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladi [9, 12].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Buhalis, D. (2000). Marketing the competitive destination of the future. *Tourism Management*, 21(1), 97–116. [https://doi.org/10.1016/S0261-5177\(99\)00095-3](https://doi.org/10.1016/S0261-5177(99)00095-3)
2. Davidson, R., & Cope, B. (2003). *Business travel: Conferences, incentive travel, exhibitions, corporate hospitality and corporate travel*. Pearson Education.
3. Dwyer, L., Forsyth, P., & Dwyer, W. (2010). *Tourism economics and policy*. Channel View Publications.
4. Getz, D. (2008). Event tourism: Definition, evolution, and research. *Tourism Management*, 29(3), 403–428. <https://doi.org/10.1016/j.tourman.2007.07.017>
5. Henderson, J. C. (2015). The development of MICE tourism in emerging markets. *Tourism Recreation Research*, 40(3), 379–389. <https://doi.org/10.1080/02508281.2015.1075721>
6. Konyeva, N. A. (2021). O‘zbekistonning xalqaro turizm aloqalarini rivojlantirish yo‘llari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 6(2), 145–150.
7. Ministry of Tourism and Cultural Heritage of the Republic of Uzbekistan. (2023). *Annual report on tourism development*. <https://www.motach.uz>
8. Mair, J. (2012). Profiling conference delegates using attendance motivations. *Journal of Convention & Event Tourism*, 13(2), 105–117. <https://doi.org/10.1080/15470148.2012.678723>
9. OECD. (2020). *Tourism trends and policies 2020*. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/6b47b985-en>
10. Pizam, A., & Mansfeld, Y. (2000). *Consumer behavior in travel and tourism*. Haworth Press.
11. Rahimova, M. (2020). MICE turizmining O‘zbekiston iqtisodiyotidagi o‘rni. *Turizm va iqtisodiyot ilmiy jurnali*, 3(1), 90–95.
12. Rogers, T. (2013). *Marketing destinations and venues for conferences, conventions and business events* (2nd ed.). Routledge.